



UDK:811.512

Burxon ABDULXAYROV,
Milliy rassomlik va dizayn instituti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
E-mail: abdulxayrov@list.ru

Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, PhD N.Ramazonov taqrizi asosida

LIFE CREATED BY SOFIZADY AND INTERPRETED BY MIYONA BUZRUKA

Annotation

The article examines the treatise of Miyon Buzruk Salikhov, a literary scholar who lived and worked in the 1920s and 1930s, on the life and work of the Uzbek modernist poet Muhammadsharif Sofizoda from a modern point of view. It is known that in the 1920s and 1930s it was a difficult period for poets, writers, and artists. Poetomu proizvedeniya, sozdannye v etot period, often schitayutsya zarajennymi vulgarnym sotsiologizmo. However, there is a lack of published work, because it is upominalos, izuchenie predstavlenykh v nix tsennyykh svдетельств i soobrajeniy imeet vajnoe znachenie dlya sogodnyashnego Uzbekskogo literaturovedeniya. Naprimer, ix analiz pozvolyaet objektivno izuchit idei i vzglyady, otrajennyye v Uzbekskoi intelligentsii, sozdannyye eyu godojestvennyye i nauchnyye proizvedeniya.

Key words: Uzbek djadid literature, djadidism, contemporary Uzbek literature, progressiveness.

ЖИЗНЬ И ТВОРЧЕСТВО СОФИЗАДЫ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ МИЙОНА БУЗРУКА

Аннотация

В статье рассматривается трактат мейна бузрука салихова, литературоведа, жившего и работавшего в 1920–1930-е годы, о жизни и творчестве узбекского поэта-модерниста мухаммадшарифа софизода с современной точки зрения. Как известно, 1920–1930-е годы были очень трудным периодом как для поэтов, так и для литературоведов, изучавших их творчество. Поэтому произведения, созданные в этот период, часто считаются зараженными вульгарным социологизмом. Однако, хотя подобные работы были опубликованы с недостатками, как уже упоминалось, изучение представленных в них ценных свидетельств и соображений имеет важное значение для сегодняшнего узбекского литературоведения. Например, их анализ позволяет объективно изучить идеи и взгляды, отраженные в узбекской интеллигенции, созданные ею художественные и научные произведения.

Ключевые слова: Узбекская джадидская литература, джадидизм, современное узбекское литературоведение, прогрессивность.

SO'FIZODA HAYOTI VA IJODI MIYON BUZRUK TALQINIDA

Annotation

Ushbu maqolada XX asrning 20-30-yillarida yashab ijod etgan adabiyotshunos olim Miyon Buzruk Solihovning o'zbek jadid shoiri Muhammadsharif So'fizoda hayoti va ijodini tadqiq etib yozgan risolasi bugungi kun nuqtai nazaridan tadqiq etildi. Ma'lumki, o'tgan asrning 20-30-yillari yozuvchi shoirlar uchun ham ular ijodini tadqiq etgan adabiyotshunos olimlar uchun ham juda murakkab kechgan davr hisoblanadi. Binobarin, bu davrda yaratilgan asarlar ko'pincha vulgarsotsiologizm illati bilan zararlangan hisoblanadi. Biroq bu kabi asarlar aytilgani singari nuqsonlar bilan dunyo yuzini ko'rgan esa-da, ularda keltirilgan qimmatli dalil va mulohazalarni o'rganish bugungi kun o'zbek adabiyotshunosligi uchun muhim sanaladi. Chunonchi, ularni tahlil qilish orqali o'zbek jadid ziyolilari va ular tomonidan yaratilgan badiiy va ilmiy asarlarda aks etgan g'oya va qarashlarni xolis tadqiq etish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: O'zbek jadid adabiyoti, jadidchilik, zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligi, taraqqiyparvarlik.

Kirish. Zamonaviy o'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligi o'tgan asr 20–30-yillarida shakllanish davrini boshidan kechirdi. Biroq bu shakllanish turli qarama-qarshilik va ziddiyatlar ichida kechganligi bois bugungi kunda uni o'rganish borasida mubohasali, ayrim o'z yechimini topmagan o'rinlar mavjud. Chunonchi, bu davr adabiyoti va adabiyotshunosligida hayoti va ijodi kommunistik mafkura bilan to'qnash kelishi oqibatida o'zgachalik kasb etgan Hamza Hakimzoda, Mirmuhsin SHermuhammedov, Otajon Hoshimov singari ayrim shaxsiyatlar borki, bugungi adabiyotshunoslikda ular ijodida aks etgan qarashlar haqida chuqur mulohazalarga asoslangan tahlillar yetarli deb bo'lmaydi. Ana shunday ijodkorlar qatoriga Muhammadsharif So'fizoda (1869–1937) va Miyon Buzruk Solihovlarni ham kiritish mumkin. Bizningcha, Hamza, Mirmuhsin, So'fizoda singari ijodkorlar hayoti va ijodi haqida yorqinroq tasavvurga ega bo'lish uchun ular to'g'risida 20–30-yillarda yaratilgan manbalarni chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega. Mana shunday manbalar sirasiga Miyon Buzruk Solihovning “So'fizoda va uning ijodi haqida” nomli risolasi ham kiradi.

Bizningcha, masalaning bunday bo'lishi Miyon Buzrukning boshqa asarlariga xos bo'lgan kamchiliklar ushbu risolaga ham xos ekanligida deya baholash mumkin. Masalan, risola sho'ro mafkurasi bilan murosa zaruriyatidan kelib chiqib vulgar sotsiologizm illati bilan zararlangan. Ikkinchidan, risolada 30-yillarda o'zbek adabiyotshunosligi hali to'la shakllanib

ulgurmaganligi sababli unga xos kamchiliklar ham kuzatiladi. Uchinchidan esa, Miyon Buzrukning mazkur risolasi tilini o'sha davrdagi boshqa ijodkorlar asarlari tili bilan qiyoslaganda ham kamchiliklarga ega. Bu holat Miyon Buzrukning boshqa asarlarida ham uchraydi. Buning sababi, olimning 20-yillarda O'zbekistondan xorijda yashaganligidadir. Shu bois u zamonaviy o'zbek adabiy tili shakllanishining dastlabki bosqichini amalda o'z boshidan o'tkazmagan. Natijada, uning 30-yillarda yozgan asarlarida eski madrasa tiliga xos konstruksiyalar hamda so'z va iboralar ko'p qo'llanilganligi kuzatiladi. Mana shunday sabablarga ko'ra Miyon Buzrukning boshqa asarlari singari, mazkur risoladan ham bugungi kunda to'g'ridan-to'g'ri istifoda etib bo'lmaydi. Biroq u bu kamchiliklaridan qat'iy nazar So'fizoda hayoti va ijodiga xolis baho berish borasida muhim manbadir. Shularni hisobga olib ushbu maqolada Miyon Buzruk risolasidagi So'fizoda hayoti va ijodini yoritishga xizmat qiluvchi ma'lumot va qarashlar asosida shoir ijodiga bugungi kun nuqtai nazaridan yangicha baho berish maqsad qilib olingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Miyon Buzrukning “Sufizoda va uning ijodi haqida” nomli risolasi 1934-yil nashrdan chiqqanidan keyin shoir va olim Maqsud Shayxzodaning “So'fizoda va uning ijodi haqida” nomli maqolasi “Mash'ala” jurnalida e'lon qilinadi [Maqsud Shayxzoda., 3]. Keyinroq, 1967-yilda adabiyotshunos olim To'lqin Rasulovning “Muhammad Sharif So'fizoda” nomli risolasi “O'zbek sovet adabiyoti tarixi”

o'quv-qo'llanmasining 1-tomidan joy oladi [Rasulov T., 4]. Atoqli adabiyotshunos olim, akademik Naim Karimov 2012-yilda "Muhammadsharif So'fizoda" nomli risolasi nashrdan chiqdi. Olim ushbu risolada So'fizoda haqidagi shu paytgacha yozilmagan juda ko'p yangiliklardan xabardor etgan [Karimov N., 1].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda, asosan, o'zbek jadidchilik harakati tarixiga oid shu kungacha yaratilgan ilmiy asarlarga tayanildi. Xususan, jadid ziyolilarining O'zbekiston zamonaviy tarixini yaratish borasidagi ilmiy izlanishlari natijalari hisoblangan asarlar va mustaqillik yillarida jadid ziyolilar ilmiy merosini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar maqola ilmiy yo'nalishi va metodologiyasini belgilab beradi.

Tahlil va natijalar. Miyon Buzruk Solihovning mazkur risolasi 1934-yilda Toshkentda nashr etilgan. Risola ikki qismdan iborat. Uning birinchi qismida So'fizodaning hayoti va ijodi tahlil etilgan bo'lsa, ikkinchi – ilova qismida esa shoirning turli yillarda matbuot sahifalarida e'lon etilgan she'rlaridan 8 tasi namuna sifatida berilgan.

Miyon Buzruk So'fizodaning Namanganning Axxi-shaxand qishlog'ida, kambag'al dehqon oilasida dunyoga kelganligi va dastlab an'anaviy mumtoz adabiyot yo'nalishida ishqi mazmunda she'rlar yozganligini aytadi. So'fizoda 1893–1898-yillarda Qo'qonda yashaganidan keyin o'zi tug'ilib o'sgan Chustga qaytib keladi. Biroq bu yerda ham ko'p turish iloji bo'lmaganidan 1900–1914-yillarda Vatandan tashqarida yashashga majbur bo'ladi. So'fizoda xorijda yashagan kezarlarida Ozarbayjon, Turkiya va Arabiston kabi o'lkalarga sayohat qilgan. U bu yerlarda taraqqiyparvar ziyolilar bilan muloqotda bo'lib, ular ta'sirida jadid muallimi va shoiri bo'lib shakllangan.

So'fizoda 1914-yilda Namanganga qaytib keladi va dastlab o'zining tug'ilib o'sgan yeri – Chust shahrida usuli jadid maktabi ochib, o'qituvchilik qila boshlaydi. U o'zi ochgan maktab peshtoqiga:

Men ul bo'yoqchiki, maktab xumida rang berib,

O'n ikki oyda qaro chappalarni oq qilaman, –

degan xarakterli baytni yozib qo'ygan. Aytish mumkinki, mana shu ikki misra she'rda usuli jadid maktablarining butun afzalliklariyu o'ziga xos jihatlari aks etgan. Bu yerda shoir o'qituvchini buyumlarni bo'yaydigan kosibga, maktabni uning xumiga, hali o'qish-yozishni bilmaydiganlarni esa ranglanmagan – qora buyumga o'xshatadi. Mana shu qora buyumni oqqa aylantirish, ya'ni maktabga endi qadam qo'ygan, hech narsani bilmaydigan kishining o'n ikki oyda savodini chiqarish eski, islohtalab bo'lib qolgan madrasalar bilan qiyoslaganda juda tez va samarali edi.

So'fizoda muallimlik qilish bilan birga badiiy ijod bilan ham shug'ullandi. U o'z asarlarida, asosan, jadidchilik g'oyasini jozibali ohanglarda tarannum etadi. Uning she'rlarida o'sha davrning tegilishi xavfli va nozik nuqtalari yoritilgan. Masalan, 1910-yilda "SHo'ro" jurnalida chiqqan bir she'rda ayollar yuzini ochib yurishi mumkin bo'lmagan zamonda parangi zararlari haqida baralla fikr yuritilgan. Bu she'r xotin-qizlar tilidan quyidagicha yozilgan:

Qayerda qizlar uchun maktab etdingiz ta'sis?

Qayerdadir u kitoblarki, biz o'qib-yozalim?

Hijobimiz biza mone' emasmi tahsila?

Bosh uzra parangi bo'lsa, tabiiy, biz qochalim.

Shuningdek, shoirning 1917-yilga qadar yozilgan "O'qing, onalar" she'ri ham u jadidchilik g'oyalari asosida ijod etganligini ko'rsatadi. Bu she'rda asosan, jadidchilik va ayollar ozodligi hamda bunga jamoatchilik munosabati masalasi aks etgan. Ma'lumki, XX asr boshlarida ayollar yuzlarini ochib yurolmas, shuningdek, erkaklar bilan teng bilim olish imkoniyatiga ham ega emas edilar. Buning ustiga, tushunmaslik va nochorlik oqibatida ko'pchilik ota-onalar tarafidan yosh qizlarni boy xonadonlarga cho'rilikka berish odat tusiga kirgan edi:

Muncha yomon sho'rladi peshonalar?

Qizlarimiz joriyai xonalar,

Siz edingiz jonlari jononalar,

Qadringizi bilmadi devonalar,

Qumri bilan bulbulu bedonalar,

Yaxshi o'qur, siz ham o'qing, onalar.

Islom dinida o'qish, bilim olish erkak va ayol uchun birday farz ekanligi aytilgan. Lekin ijtimoiy hayotda ma'naviy tanazzul yuz bergan paytlarga kelib shariatning ayollarga beradigan bu kabi haq-huquqlariga amal qilinmagan. Shuning uchun ham shoir bu haqda quyidagicha yozadi:

Rasmi ravish shul esa nisvoniyat,

Kulsa kerak olami islomiyat.

Qayda shariat? Qani haqqoniyat?

Qildi sizi johila nafsoniyat.

Yoki:

Dod o'shal olami ruhonidan,

Qo'shdi shariatga o'zi yonidan,

Xormi edi dini aziz jonidan,

Millat uchun kechmadi o'z nonidan.

Mana shunday ayanchli ahvoldan ta'sirlangan shoir ayollarga bunday huquqsizlikdan qutulishning yagona yo'li o'qish, bilim olish ekanligini uqtiradi:

Millati islomiyaning bonusi,

O'zbek elining qorako'z ohusi!

Ko'r qilar bir kuni joh og'usi,

Ilmu amal ushbu kasal dorusi.

Miyon Buzruk So'fizodaning xotin-qizlar ozodligi borasidagi bu kabi qarashlari sotsializm g'oyasiga to'g'ri kelmasligi, balki u har jihatdan jadidlar mafkurasiga mosligi haqidagi haqli qarashni ilgari surgan. Biroq T.Rasulov esa: "Ba'zi tadqiqotchilar shoir (So'fizoda – B. A.) ijodiga baho berishda uni jadid ideologlarining yirik vakili sifatida tasvirlashga uringanlar. Lekin shoir ijodi bu fikrlarni mutlaqo rad etadi", – deya Miyon Buzrukning bu fikriga qarshi chiqqan. Bizningcha, Miyon Buzruk So'fizoda qarashlari kommunistik mafkuraga to'g'ri kelmasligi, balki jadidchilik g'oyasiga mosligi haqida aytganida kommunistlarning har qanday din va diniy qarashlarni inkor etganligini, jadidlar esa dinning asos masalalariga emas, balki unga yopishgan xurofotlarga qarshi ekanliklarini nazarda tutgan. Darhaqiqat, jadidlar xotin-qizlar ozodligi masalasida ham sho'ro mafkurachilaridan farqli o'laroq, tutgan yo'llarini Qur'on va Hadis talablariga moslash tarafdori bo'lganlar.

Miyon Buzruk, shuningdek, ayollar ozodligi masalasi ilgari surilgan bu she'r feodalizm sharoitidagi reaksiya qarashlarga, ya'ni xotin-qizlarni ozodlikka chiqarishga urinish jaholatparast guruhlar tarafidan "kofirlik" sanalib turgan bir davrda katta jasorat bilan yozilgan asar ekanligini qayd etgan.

Ma'lumki, So'fizodaning mana shunday she'rlari va u ochgan jadid maktabi ta'sirida manfaatlariga ziyon yetayotgan Chustdagi mutaassiblar unga qarshi hujumga o'tadilar. Ular So'fizodani dinsiz va kofir deb e'lon etadilar. Shariat nomidan e'lon qilingan bu hukm bilimsiz ommani So'fizodaga qarshi hujumga chorlaydi. Natijada shoirning yangi qurilgan turmushi buzilib, u rafiqasi bilan ajrashadi. O'z manfaati yo'lida qora guruhlarini dastaklovchi chor hukumati esa bu hodisaga tomoshabin bo'lib qarab turishdan nariga o'tmaydi. Kuchli dushman guruh qarshisida ojizlanib qolgan So'fizoda esa o'zi yashab turgan yurti tashlab ketishga majbur bo'ladi. Biroq bu mag'lubiyat So'fizodani umidsizlantirmaydi, balki uning qalbida jaholatparast kimsalarga nisbatan bir umrlik kuchli nafrat paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. U fursat va sharoit topishi bilan:

Quvdi meni johillar o'shandoq Vatanimdan,

Lekin quva olmas suxanimni dahanimdan, –

deya ularga qarshi yozishda davom etadi.

So'fizoda 1914-yilda yurtidan haydalganidan keyin Xivaga yo'l oladi. U Xivaning Qo'ng'iro't qishlog'iga kelib o'nashadi va bu yerda muallimlik qilish bilan birga badiiy ijodini ham davom ettiradi. Uning bu yerda yozgan jadidchilik ruhida she'rlari Tataristonning Orenburg shahrida chiqadigan "SHo'ro" jurnali sahifalarida e'lon etilgan. Shuningdek, ba'zi she'rlari Toshkentda chiqadigan "Turkiston viloyatining gazetasi" nomli rasmiy gazetada ham nashr qilingan.

So'fizoda bir muddat Xorazmda bo'lganidan keyin Afg'onistonga yo'l oladi. U bu yerda Mozori Sharifning hojilar yashaydigan zax va qorong'i hujralarida qiyin sharoitda och va bemorlikda yashagan. Keyinroq esa u Afg'oniston davlat idoralariga ishga o'tadi va 1919-yilda Afg'on hukumati ma'murlaridan iborat guruh qatorida O'zbekistonga keladi. Biroq

u bu yerga kelganidan keyin o'z yurtida qolish ishtiyoqi ustun kelganidan Afg'on delegatsiyasidan ajralish maqsadida ularga quyidagi mazmundagi xat bilan murojaat qiladi:

“O'z yurtimda ishlashga sharoit bo'lmagan chog'larda va og'ir kunlarimda yurtingizda xizmat qilishga imkon va yordam berdirlaringiz. Bunga tashakkur etaman. Hozirda bu mamlakat xalqi ozodlikka erishgan va mening tilagim hosil bo'lgan. Shu holda bu yerda ishlashimga hech qanday mone' qolmagan. Buni arz etmak bilan birga omonatlaringizni qaytaraman”.

Shundan keyin So'fizoda insonparvarlik g'oyalari o'zlariga shior qilib olgan va kelajak haqida zo'r va'dalar berishdan charchamaydigan sho'rolar pozitsiyasiga o'tib ishlay boshlaydi. Chindan ham So'fizoda 1920-yilda Chustga borib, u yerda firqa tashkilotchisi o'laroq, yacheyka tashkil qiladi. Shoirni hali o'z o'tmishidagi alamzadalik tark etmagan edi. Shuning uchun ham u bir guruh o'ziga o'xshagan alamzada, nohaqlik qurboniga aylanganlarni atrofiga to'plab, boy va amaldorlardan o'ch olishga kirishadi. Biroq u bu ishga haddan ortiq berilib ketadi. Natijada u bilan sho'ro hukumatining Chustdagi mahalliy hokimiyati tarkibiga kirib ishlayotgan, asli jadidchilik harakatiga mansub amaldorlar o'rtasida ziddiyat yuzaga kelgan. Bu holat uning 1917-yil oktabr to'ntarishidan keyingi adabiy ijodida aks eta borgan. Masalan, So'fizoda 1925-yilda yozilib, “Farg'ona” gazetasida bosilgan “Ezuvchilar kim” nomli she'rida Sho'ro hukumatining Chustdagi ana shunday ma'murlaridan birini tanqid qilib, quyidagicha yozgan:

Ahli davlat sinfidan bir dasta vijdoni kasal,
Yig'ladi, yalvordi, yo'qsullik dedi, oldi amal,
Otga mindi, “ota go'ridan” o'qib baytu g'azal,
Man agar yolg'on desam, insof ko'zi bilan qarang,
Yozga yetmay suvchi meshkidek chunon bo'ldi tarang.

Agar yuqoridagi she'riy parchaga e'tibor berilsa, unda “ahli davlat sinfi”, ya'ni boylardan bo'lgan bir kishi o'zini kambag'alga solib sho'ro hukumati tarkibiga kirib olganligi haqida so'z ketayapti. Miyon Buzrukning qayd etishicha, mana shu tanqid qilingan ma'mur turli yo'llar bilan So'fizodaga qarshi ish olib borgan va uni firqa xizmatidan chetlashishga majbur qilgan.

So'fizoda o'z she'rlarida o'tgan hayotida eski tuzumdan ko'p jabr ko'rgan inson bo'lganligidan sho'ro hokimiyatini kambag'al va jabrdiydalar homiysi bilib madh etgan. Chunonchi, bu madhgo'ylik 1933-yilda yozilgan “Oktabr taronasi” nomli she'rida quyidagicha aks etgan:

ADABIYOTLAR

1. Karimov N. Muhammadsharif So'fizoda. Toshkent, Muharrir nashriyoti, 2012. 132 bet.
2. Solihov M.. So'fizoda va uning ijodi haqida. O'zDAVNASHR. 1934. Toshkent, 1934. 43 bet.
3. Maqsud Shayxzoda. So'fizoda va uning ijodi haqida. “Mash'ala” 1935. 1-son, B.29.
4. Rasulov T. Muhammadsharif So'fizoda. O'zbek sovet adabiyoti tarixi. 1-tom. Toshkent, 1967. 306–310-betlar.

Siyosiy rahbarimiz firqai odilparvar,
Ishonchli quvvatimiz qahramon qizil askar,
Hamisha ko'rsatadur dunyoga zafar va hunar,
Amalda yer yuzining xalqiga vafo gustar.

Miyon Buzruk So'fizodaning ruhoniylar va boylarga qarshi yozgan she'rlarini jadid adabiyoti vakillarining reaksion ulamoga qarshi yozgan asarlariga o'xshatib bo'lmashligini aytadi. Uning fikricha, So'fizoda o'zining Oktabr o'zgarishidan keyingi asarlari bilan jadidlardan ajralganligini isbotlagan. Binobarin, u jadidlarning aksilinqilobiy harakatlariga qarshi ham she'rlar yozgan. Masalan, uning 1925-yilda yozilib, “Qizil O'zbekiston” gazetasida bosilgan “Madaniy makiyonlarga” nomli she'ri bunga yorqin misol bo'la oladi. Unda jadidlarga qaratata shunday deyiladi:

Uqmadi majlisda Akmal pandini go'shi karing,
Shubhasiz, ahmoqligingdin aynamish mag'zi caring...
Hech tuzalmaydir sening qalbi xiyonatparvaring!

Bo'lmaganing shul Cho'qayev bo'lsa topgan rahbaring!

Xulosa va takliflar. Miyon Buzruk risolasidagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, aslida So'fizoda, Hamza, Mirmuhsin singari ijodkorlar, avvalboshda, jadidchilik g'oyalari asosida ijod qilishgan bo'lib, ular keyinchalik, ya'ni O'zbekistonda sho'ro hukumati o'rnatilganidan so'ng uning tomoniga o'tib ijod qilganlar. Bunday holatni nafaqat mazkur shoirlar, balki jadidchilik ichidan yetishib chiqqan ko'plab ziyolilar, davlat arboblari faoliyatida ham kuzatish mumkin. Bu holat esa jadidchilik harakatining siyosiy sahnadagi omadsizligi bilan izohlanadi. Chunki 1920-yillarning ikkinchi yarmiga kelib, O'zbekistonda sho'ro hukumati mustahkamlangan va o'zining bu yerdagi asosiy raqibi bo'lgan jadidchilik harakati poyiga bolta urishni boshlagan. U bu yo'lda “bolta sopini o'zidan chiqarish” qabilida ish tutib, jadidlarning o'z ichidan kishilarni tanlab olgan va o'zining jadidchilikka bo'lgan yomon munosabatini ular tilidan chiqargan. Aytish mumkinki, 1925-yildagi ziyolilar qurultoyida Akmal Ikromov tomonidan jadidchilikka qarshi rasmiy ayblovlari e'lon qilinishi ham shu taxlit ro'y bergan. Yuqorida keltirilgan So'fizodaning she'rida ham: “Uqmadi majlisda Akmal pandini go'shi karing”, – deyilganida A.Ikromovning ziyolilar qurultoyidagi o'sha nutqiga ishora qilingan. Biroq mana shunday murosasiz yo'lini tutishlarga qaramay 1937-yilga kelib Akmal Ikromov ham, So'fizoda ham, Miyon Buzruk ham mustabid tuzum qatag'oniga uchradilar.